SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (5-jild)

2025

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5I2Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

### *№ 2 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 2-son (Fevral, 2025). - 630 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Matkarimova Sadoqat Maqsudovna*
SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI .......... 13-19

*Matyakubov Xamdam Xamidjanovich*
MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO‘YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA’SIR VA HAMKORLIK .......... 20-24

*Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin*
TURKISTONDA JADIDLARNING TA’LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN .......... 25-29

*Хуррамова Саодат Хабибовна*
ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА .......... 30-37

*To‘ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi*
ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI .......... 38-44

*Elboyeva Shaxnoza*
AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR VA BU BORADA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI .......... 45-50

*Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O‘g‘iloy*
TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO‘LGAN TARIXI HAQIDA .......... 51-54

*Tojiev Alisher Sultannazirovich*
MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI .......... 55-60

*Bekbayev Bekjon*
XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN .......... 61-67

*Salayev Umrbek Kadambayevich*
JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA’ZI CHIZGILAR .......... 68-71

*Ro‘ziyeva Mashxura Abdimuminovna*
LO‘LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .......... 72-78

*Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi*
ICHKI SAVDO QO‘QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) .......... 79-84

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Kazakov Olim Sabirovich*
XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH .......... 85-89

*Исламутдинова Дина Файзрахмановна*
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 90-98

*Alikulov Mehmonali Salahiddin o‘g‘li*
QISHLOQ XO‘JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA YO‘NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI ........ 99-106

*Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor*
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI ........ 107-113

*Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod*
CHO‘L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LARI ........ 114-121

*Aliyarov Olim Abdug‘aparovich*
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ........ 122-132

*Komilov Bakhtiyorjon*
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA ........ 133-144

*Djumanov Saitmurod Alibekovich*
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 145-150

*Yariyev Sherzod Shukurjanovich*
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI ........ 151-155

*Matkarimov Feruz Bekturdiyevich*
MINTAQADA TO‘QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 156-160

*Xaydarova Durdona, To‘xtayeva Moxinur*
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 161-166

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yusubov Jaloliddin Kadamovich*
ABU NASR FOROBIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI ........ 167-175

*Nosirxo‘jayeva Gulnora Abduqahhorovna*
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA’NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI ........ 176-179

*Xoliqov Yunus Ortiqovich*
BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI ........ 180-184

*Berdaliyeva Sevara*
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB “KUTADGU BILIG” ........ 185-191

*Parpiyev Muhammadjon Tolibovich*
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI ........ 192-197

*Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi*
IBN ARABIY “VAHDATUL VUJUD” TA’LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI ........ 198-202

*Ulug‘murodov Elyor Saydulloevich*
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI ........ 203-206

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING
DIALEKTIK MAZMUNI ........ 207-213

*Xasanov Boburjon Xakimovich*
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI ........ 214-219

*Shokirov Mubin Rustamovich*
MILLIY O‘ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT ........ 220-225

*Ismoilov Maxammadixon*
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV
MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI ........ 226-230

*Shokirov Murod Rustamovich*
YANGI O‘ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI ........ 231-234

*Hamroyev Saidjon Sanoyevich*
YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR
TARAQQIYOTNI TA’MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O‘RNI ........ 235-239

*Sharopov O‘lmasbek Shuhrat o‘g‘li*
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI
(TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) ........ 240-243

*Ulug‘ov Jasur Nasirdinovich*
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING
IJTIMOIY HAYOTGA TA’SIRI ........ 244-249

*Qodiraliyev Abror Tojimurot o‘g‘li*
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI
QARASHLARI MISOLIDA ........ 250-253

*Ibragimov Kudrat*
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL
DAVLATLARI ........ 254-260

*Oripov Axmadjon Muxammadjonovich*
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY
TALQINI ........ 261-267

*Ibragimova Zulayxo Karimbayevna*
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI
VA ASOSIY KOMPONENTLARI ........ 268-274

*Abdullayev A’zam Abdiyevich*
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM
XUSUSIYATLARI ........ 275-281

*Ochilov Azimjon Tuxtamishovich*
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING
TARQALISHI ........ 282-285

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI


*Raxmanova Sarvinoz Alisherovna*
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA) ........ 286-289

*Kaxarova Iroda Sidikovna*
MODAL SO‘ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH ........ 290-296

*Babadjanova Nazokat Davronbekovna*
“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI ........ 297-302

*Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna*
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK “ULUG‘ SALTANAT” ........ 303-308

*Hatamova Kamola Toshmurod qizi*
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA ........ 309-316

*Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna*
TERMINOLOGIYANING O‘ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O‘RGANILISHI ........ 317-321

*Otajonova Dildor Baxtiyarovna*
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI ........ 322-326

*Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich*
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES ........ 327-331

*Xoshimova Oydina Shuxrat qizi*
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O‘RNI VA RANGLAR IFODASI ........ 332-338

*Babayeva Iroda*
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING ........ 339-342

*Fozilov Odil Yuldashevich*
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE........ 343-346

*Raxmonova Dildora Mirzakarimovna*
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING “BAXTSIZ KUYOV” DRAMASI MISOLIDA) ........ 347-351

*Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna*
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI ........ 352-357

*Xamidova Sayyora Nurmatovna*
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 358-363

*Mengboyev Azizbek Alijon o‘g‘li*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI ........ 364-368

*Hayitova Shohida Erkin qizi*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI ........ 369-373

*Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi*
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI ........ 374-378

*Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich*
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY OʻRGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY OʻZIGA XOSLIGI ........ 379-385

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Мухитдинова Фирюза*
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА ........ 386-393

*Uzakova Goʻzal Sharipovna*
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI ........ 394-403

*Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat*
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ........ 404-414

*Yakubova Iroda Bahramovna*
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI ........ 415-419

*Obidov Tolibjon Avezxanovich*
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI OʻZARO HAMKORLIK MASALALARI ........ 420-425

*Tuxtashev Sherzod Azimovich*
JINOYAT ISHINI TOʻXTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI ........ 426-430

*Maxamatov Maxmud Maxamataminovich*
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI ........ 431-436

*Rahmatov Elyor Jumaboyevich*
BOJXONA MA’MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ISHTIROKI ........ 437-441

*Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna*
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI ........ 442-447

*Shermatov Nuriddin*
RAQAMLI ERADA SUN’IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA ........ 448-455

*Juraeva Asal*
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS ........ 456-461

*Собиров Саидбек Махмудович*
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ ........ 462-467

*Nurbayev Muzaffar Erkinovich*
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 468-478

*Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li*
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI ... 479-485

*Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li*
SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR ... 486-491

*To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li*
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI ... 492-500

*Yusupov O'ktamboy*
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI ... 501-509

*Murodxonov Muhammadnur*
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI ... 510-518

*Ёкубов Шухратжон, Эргашева Мунисa*
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ ... 519-523

*Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li*
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI ... 524-530

*Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li*
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI ... 531-536

*Хайдарова Хилола Анваровна*
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ ... 537-542

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Ibraximov Sanjar Urunbayevich*
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI ... 543-547

*Karimov Akramjon Zaynobidinovich*
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ... 548-554

*Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich*
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ... 555-561

*Karimov Qayum Mamashayevich*
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ... 562-569

*Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi*
MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI ........ 570-576

*Qodirov Azamat Muxriddinovich*
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O‘QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO‘NALGAN O‘QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA ........ 577-582

*Тлеумуратова Абадан Бекбановна*
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ........ 583-585

*Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich*
TALABALAR TA’LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ........ 586-592

*Mamaziyayev Oblaberdi*
OLIY TA’LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI ........ 593-598

*Isoqov Murod Madaminjonovich*
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG‘OR XORIJIY MODELLARI ........ 599-605

*Nasriddinova Hulkar Komiljonovna*
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O‘QITISHNING HOZIRGI HOLATI ........ 606-610

*Allayeva Hafiza Rustam qizi*
BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI ........ 611-614

*Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna*
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI ........ 615-621

*Xo‘jaqulov Ro‘zibek Ilhomjon o‘g‘li*
BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI ........ 622-625

*Elova Sitora Axmatkulovna*
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI ........ 626-629

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 2 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 25 January 2025
**Accepted:** 1 February 2025
**Published:** 10 Feburary 2025

*Article / Original Paper*

# DIALECTICS OF SOCIO-ECONOMIC ACTIVITY IN YOUTH AND ITS CERTAIN FEATURES

**Abdullayev A'zam Abdiyevich**
Tashkent State University of Economics,
Associate Professor, Department of "Philosophy"

**Abstract.** The study looks at how the things that happen in a young person's life and their own goals affect their participation in business activities. An important part of the book is the discussion of how social standards and personal goals affect young people's money decisions and actions. The study uses both qualitative and quantitative methods to look at how young people are involved in different economic areas, how creative they are, and how they adapt to job markets that change quickly. The article suggests ways to improve young people's ability to participate in society and the economy by finding important trends and problems they face. This research is very important for lawmakers and teachers who want to make the economy more open and useful for young people.

**Keywords:** youth, socio-economic activity, dialectics, societal development, entrepreneurship, labor market, economic participation, social environment, economic behavior, strategic approaches, inclusivity, productivity, challenges, trends, policy.

# YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI

**Abdullayev A'zam Abdiyevich,**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Falsafa" kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya.** Maqolada yoshlarning hayotida sodir boʻlayotgan voqealar va oʻz maqsadlari ularning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokiga qanday ta'sir koʻrsatishi koʻrib chiqiladi. Maqolaning muhim qismi ijtimoiy me'yorlar va shaxsiy maqsadlar yoshlarning moliyaviy qarorlari va harakatlariga qanday ta'sir qilishini muhokama qilishdir. Unda yoshlarning turli iqtisodiy sohalarda qanday ishtirok etishi, ularning ijodkorligi va tez oʻzgaruvchan mehnat bozorlariga qanday moslashishini oʻrganish uchun ham sifat, ham miqdoriy usullardan foydalaniladi. Maqolada yoshlar duch keladigan muhim tendensiyalar va muammolarni topish orqali ularning jamiyat va iqtisodiyotda ishtirok etish qobiliyatini oshirish yoʻllari taklif etilgan. Ushbu tadqiqot iqtisodiyotni yoshlar uchun yanada ochiq va foydali qilishni xohlovchi qonun chiqaruvchilar va oʻqituvchilar uchun juda muhimdir.

**Kalit soʻzlar:** yoshlar, ijtimoiy-iqtisodiy faollik, dialektika, jamiyat taraqqiyoti, tadbirkorlik, mehnat bozori, iqtisodiy ishtirok, ijtimoiy muhit, iqtisodiy xulq-atvor, strategik yondashuvlar, inklyuzivlik, unumdorlik, muammolar, tendensiyalar, siyosat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N43

Har qanday jamiyat taraqqiyotini madaniy omillarsiz va milliy gʻoyalarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Shakllangan fuqarolik jamiyati madaniyat va milliy gʻoya nuqtai nazaridan oʻzaro bogʻliq tushunchalar hisoblanadi.

Ma'naviy tiklanish fikrlash tarzini, mustaqillik ruhini belgilaydigan yangi avlodga mansub ijodiy ziyolilarning paydo boʻlishi demakdir. Mustaqillik tufayli jamiyat bilan bir qatorda madaniyatga jumladan, yuqoridagi qismda keltirilganidek, siyosiy madaniyatga

boʻlgan munosabat oʻzgardi. Maʼlumki, mamlakatimizda eski anʼanaviy talqinlar oʻrnida yangicha zamonaviy qarashlar qaror topdi. Buni Vatanimiz yoshlari faoliyatida turli sohalardagi ishtiroklarida aniq koʻrish mumkin. Jumladan, tadqiqotchi olim M.B. Qodirov taʼkidlaganidek, “Fuqarolik jamiyati, bir tomondan, jamiyat aʼzolarining siyosiy va huquqiy madaniyatlarining yuksak boʻlganligi uchun ham hukumat va uning organlariga boshqarishni qulaylashtirgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, xalq ommasining jamiyatni boshqarish va uning siyosiy hayotida faol ishtirok etishini taʼminlab kelmoqda. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy va boshqa sohalarini rivojlantirish uchun ham har bir fuqaroning erkinligi, uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki zarurligini fuqarolik jamiyatini qaror toptirish jarayoni isbotlab kelmoqda. Bizga maʼlumki, mamlakatning tutgan oʻrnini belgilashda, mavqeini aniqlashda nafaqat uning davlat tuzilmasining qudrati, balki shu mamlakatda shakllangan jamiyatning kuchi qanday ekanligi hal qiluvchi oʻrin egallaydi”[1].

Shu bilan birga endi ijtimoiy-iqtisodiy faollik dialektikasi va uning asosiy xususiyatlarini aniqlash uchun, taʼsir etadigan baʼzi olimlar haqida toʻxtalamiz. Yoshlarning maʼnaviy-axloqiy fazilatlari haqida keyingi qismda batafsil toʻxtalamiz.

Mustaqilligimizni mustahkamlashning asosiy vazifalaridan biri yoshlarning turli sohadagi qiziqishlarini inobatga olish ayni muddaodir. Ularni umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga, milliy gʻoyaning vazifalarini bajarishga tayyorlash, yuksak ong darajasini oshirish Oʻzbekistonning istiqloli haqida qaygʻuradigan, oʻzining va oʻz xalqining, Vatanining qadr-qimmati, or-nomusini anglab, uni himoya qiladigan, yuksak gʻoyalar, yangi zaruriy kashfiyotlar, niyatlar ogʻushida mehnat qilib, bor imkoniyatini yurt taraqqiyotiga, eliga baxshida etadigan barkamol avlodni etishtirishdan iboratdir. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Taʼlim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur boʻlgan yangi avlodni, ilm-fan va oʻz ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlar tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz.

Shu bilan birga, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi oʻzgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham nihoyatda muhim, albatta”[2].

Milliy istiqlol mazmun-mohiyati bilan uygʻun avlodni tarbiyalash ana shu gʻoya mazmunini shakllantirish bilan uzviy bogʻliqdir. Milliy gʻoya doirasida yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy madaniyatini yuksaltirish va yuksaltirish davr talabi boʻlib turibdi. Bu tushuncha yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda markaziy oʻrin tutadi, asosan, turli sohalarda – mahalla qoʻmitalari, yoshlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari, badiiy jamoalar, taʼlim sohalarida milliy gʻoya targʻiboti va targʻibotiga xizmat qiladi.

Yoshlarning jamiyat jarayonlari va jamoat ishlariga faol jalb etilishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda poydevor boʻlib qolmoqda. Bu borada ularning maʼnaviy-axloqiy faolligi katta ahamiyatga ega. Qolaversa, ijtimoiy siyosat yoʻnalishlarining maqsad va vazifalarini iqtisodiy asoslar orqali asoslab berish, yoshlarni mazmunli ishtirok etishga yoʻnaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning dunyoqarashini shakllantirish, jamiyat maqsadlari va intilishlarini chuqurroq anglash uchun qoʻshimcha yoʻlni taʼminlovchi mafkuraviy taʼlim bu yondashuvni toʻldiradi.

Gʻoyaviy tarbiya orqali, iqtisodiy tarbiyani ham yoʻlga qoʻyish oʻta muhimdir. Binobarin fuqarolik jamiyati ham ushbu jarayonlarni chetlab oʻta olmaydi. Prezident Sh.Mirziyoyev taʼkidlab oʻtganidek, “Oldimizga qoʻygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-

qudrat manbai boʻladigan milliy gʻoyani uzluksiz rivojlantirishimiz zarur. Sir emaski, hozirgi vaqtda aksariyat odamlar “mafkura” degan soʻzga biroz hadiksirab qaraydi, uni demokratik jamiyatga begona deb hisoblaydi. Lekin biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz.

Shu munosabat bilan taʼkidlab aytmoqchiman: biz barpo etayotgan Yangi Oʻzbekiston mafkurasi avvalo insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasi boʻladi. Oʻzbekiston taraqqiyotining bugungi jarayonlari milliy gʻoya va maʼnaviy yangilanish yoʻnalishida ham jamiyat va davlatimiz rivojining yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi”[3]

Mafkuraviy tarbiya jamiyatning barcha qatlamlarida taʼlim standartlarini yuksaltirish, ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar, har bir shaxsning jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ilgʻor tushunchalarni har tomonlama oʻzlashtirishini taʼminlashga qaratilgan asosiy tayanch hisoblanadi. Maqsad har bir yoshning ongli ravishda ilgʻor gʻoyalarni singdirish, shu orqali ularni fikrlash va idrok etish tarziga singdirishdir. Milliy gʻoyasi yurtimizdagi har bir yoshning ruhiyatida jaranglashi, milliy qadriyatlarimizning eng sof ifodalarini oʻzida mujassamlashtirgan holda, xalqimizning bugungi va istiqbolli manfaatlariga millatparvarlik ruhi nigohida uygʻunlashishi zarur.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot traektoriyasi sharoitida Oʻzbekistonning qadimiy maʼnaviy qadriyatlarini qayta tiklash muqarrarligini eʼtirof etish zaruratga aylanib bormoqda. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishida har bir fuqaroning, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy manzarani yaxlit idrok etishi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy zeitgeist fuqarolik jamiyatiga taraqqiyotni qamrab oluvchi yondashuvni talab qiladi, uning koʻp qirrali xilma-xilligini simbiozda zamonaviy hayotning turli jabhalari bilan uygʻunlashtiradi. Bu fuqarolik jamiyatidagi koʻplikni talqin qilish va uning xilma-xilligini jamiyat mavjudligining dinamik jihatlari bilan uygʻunlashtirishni talab qiladi.

Demak, mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishdagi muhim muammolardan biri, bu ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni mazmun-mohiyatini toʻla holda oʻzlarida aks ettirish zaruriyatga aylanishi kerak. Shu sababli ham yoshlarning maʼnaviy-maʼrifiy jarayonlarda faol ishtirokini amalga oshirishda jamoat birlashmalarining rolini oshirish ham hozirgi davr talabidir.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan soʻng yoshlar, oʻsmirlar va bolalarga qaratilgan koʻplab nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil etildi. Dastlab, Bolalar jamgʻarmasi xuddi shu nomdagi xalqaro tashkilotning filiali sifatida paydo boʻldi. Bundan tashqari, saylov va ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni oʻz ichiga olgan turli tadbirlar bilan shugʻullanuvchi beshta siyosiy partiyaning yoshlar qanotlari tashkil etilgan.

Yoshlarning katta qismi kasaba uyushmalari boshlangʻich tashkilotlarida oʻzini-oʻzi boshqarishda faol ishtirok etib, oʻz kuchlarini ijtimoiy faollikni oshirishga yoʻnaltiradi. Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi hal qiluvchi rolini hal etish ularning ushbu sohadagi ahamiyati va oʻziga xos fazilatlarini tushunish va qadrlashni taqozo etadi.

Oʻzbekistonda yoshlarga xizmat koʻrsatuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari koʻplab tadbirlar va anjumanlar tashkil etib, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga tinimsiz intilmoqda. Respublika Xotin-qizlar qoʻmitasi viloyat, shahar va tuman boʻlimlari bilan birgalikda yosh qizlar va oilalar uchun moʻljallangan maʼrifiy-maʼrifiy dasturlarni izchil olib bormoqda. Respublika “Maʼnaviyat va maʼrifat” kengashi tomonidan joylardagi idoralar bilan hamkorlikda taʼlim muassasalari, mehnat jamoalari oʻrtasida turli maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar oʻtkazib kelinayotgani mustahkam anʼanaga aylangan.

Turli jamoat tashkilotlarida asosiy maqsad izchilligicha qolmoqda: tinchlik, barqarorlik va jamiyat, iqtisodiy, ma'naviy va ta'lim sohalarida taraqqiyotni himoya qilishda yoshlar faolligini oshirish. Ularning sa'y-harakati navqiron avlod oʻrtasida milliy gʻurur, vatanparvarlik va intellektual salohiyatni yuksaltirish, el-yurt ravnaqi va farovonligiga faol hissa qoʻshishni ta'minlashga qaratilgan.

Fuqarolik jamiyati institutlari – oʻzini oʻzi boshqarish tuzilmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari imkoniyatlarini kengaytirish va rivojlantirish yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan faolligini oshirishning muhim yoʻnalishi hisoblanadi. Har bir yosh jamiyat tuzilmalarida, ayniqsa, Oʻzbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yoʻlida alohida oʻrin tutishini e'tirof etish ajralmasdir. Mustahkam fuqarolik jamiyati sari bu oʻtishning markaziy jihati har bir yoshda jamiyat tarkibiga daxldorlik va munosiblik tuygʻusini chuqur singdirishdir.

Jamiyatimizda mavjud demokratik institutlar – oʻzini oʻzi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, nodavlat va notijorat tashkilotlari yoshlarda mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir yoshning ijtimoiy-iqtisodiy sa'y-harakatlari demokratik siyosiy jarayonlarda, xoh u oʻrnatilgan siyosiy yoʻllar, xoh nodavlat va jamoat tashkilotlari orqali aks-sado berishi zarur. Yoshlar faoliyatining bu aksi axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy jabhalardan tashqariga chiqib, ularning siyosiy qarashlarini qamrab oladi. Ularning faolligi nafaqat shaxsga, balki mavjud oʻzini oʻzi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalarining yosh shaxslarni oʻz sohasiga integratsiyalashuvi samaradorligiga ham bogʻliq.

Asosan, shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni tushunishi va ishtirok etishi ularning axloqiy va ma'naviy asoslari bilan uzviy bogʻliqdir. Bu ijtimoiy-iqtisodiy sa'y-harakatlarning mohiyatini jamiyat landshafti doirasida jiddiy oʻylab koʻrish, yoshlarning faolligi va jamiyat taraqqiyotini ragʻbatlantirishda axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning yaxlit integratsiyasini e'tirof etish zarurligini ta'kidlaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy faollik bu – jamiyatda roʻy berayotgan iqtisodiy hodisalarga befarq boʻlmasdan loqaydlikdan uzoq boʻlib jamiyat rivojiga oʻzining tashabbusi va ijodkorligi bilan hissa qoʻshishidir. Shu bois biz izlanishimizda ijtimoiy-iqtisodiy faollikni qaysi sohalarda koʻproq namoyish etish haqida toʻxtalamiz.

Ta'kidlash lozimki ijtimoiy-iqtisodiy faollik har qanday yoshning ma'naviy, axloqiy, mafkuraviy jihatdan shakllangan ijtimoiy yangicha tafakkuriga bogʻliq. "Ijtimoiy ong, — deb ta'kidlaydi S.D. Norqulov, — ekstrospektiv hodisa. U insonning yon-atrofga, obyektiv borliqqa, jamiyat anglangan va bilgan tarzdagi munosabatlari ifodasi. Uning asosida ijtimoiy hayot, obyektiv borliq qonuniyatlari, xususiyatlari va imkoniyatlarini bilish, ushbu bilim asosida ularga munosabat bildirish yotadi. Fuqarolik jamiyati bilan ijtimoiy ong oʻrtasidagi dialektik bogʻliqlik jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari, mavjudlik xususiyatlari va obyektiv imkoniyatlarini bilishda namoyon boʻladi"[4].

Demokratik davlatlarda fuqarolik jamiyati nisbatan shakllangan boʻlsada, u doimo oʻzgarishda va rivojlanishda. Oʻzbekistonda shakllantiriladigan fuqarolik jamiyati ham ushbu xususiyatlardan istisno emas. Bu jamiyatda ham davr oʻtishi bilan yangi muammolar, vaziyatlar, zaruriyatlar boʻlib turishi aniq. Chunki, mazkur jamiyatda ham fuqarolar manfaatini, ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy faollik koʻrsatadigan yoʻnalishlar etarli va

ularning sohalari ham koʻpdir. Bu yerda savollar tugʻiladi, xoʻsh ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qaysilar?

Fikrimizcha, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar yoʻnalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin. Avvalo taʼkidlash lozimki, XXI asrda internet taraqqiyoti jamiyatlar hayotida yirik oʻzgarishlarni sodir boʻlishiga sababchi boʻldi. Eʼtibor beradigan boʻlsak yangi terminlar paydo boʻldi. “Internet tarmoqlari”, “Ijtimoiy tarmoqlar”, “Xaker”, “Feyk” va boshqalar shular jumlasidandir. Shu sababli jamiyatni iqtisodiy rivojlanishida ham mazkur tushunchalarga oʻxshash tushunchalardan foydalana boshlandi, yaʼni misol tariqasida “Ijtimoiy tarmoqlar” tushunchasi ham eski tushuncha deb qaralsa-da u yangi mazmun va mohiyatga ega.

Endilikda “Ijtimoiy tarmoqlar” tushunchasini turlar, sinf, tiplarga ajratish mumkin. Ammo bu soha boshqa tadqiqotning vazifasi boʻlishi mumkinligini hisobga olib ishimizda yoshlarni faolligini koʻproq talab qiladigan baʼzi ijtimoiy tarmoqlar ustida toʻxtalamiz. Shulardan biri bu iqtisodiy sohadir. Iqtisodiy soha nafaqat yoshlarni, balki ongli har qanday shaxsni ham qiziqtiradi. Chunki iqtisodiy soha jamiyat “Lokomativi”dir. Boshqa tarmoqlarning barchasi shu sohaga kelib taqaladi.

Jumladan, bugungi kunda raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes va elektron tijoratni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi anʼanaviy tus olganligini koʻrishimiz mumkin. Oʻzbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida “Raqamli iqtisodiyot – 2030[5]” strategiyasi ishlab chiqildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Iqtisdiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida elektron hukumatni yanada rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bunda mamlakat miqyosida sifatli va talab yuqori boʻlgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, boqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga oʻtkazish, shu jumladan koʻrsatilayotgan avtomatlashtirilgan xizmatlar ulushini 2030-yilga qadar 90 foizga etkazish lozim”[6].

Shu sababli, yoshlarning ushbu sohaga jalb etilishini sinchiklab tekshirish zarur. Fuqarolik jamiyati insoniy-milliy odob-axloq va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, axborot almashinuvining murakkab dinamikasini qamrab olgan, huquq va erkinliklarning oʻzaro timsolini qamrab oluvchi suv ombori sifatida turadi. U huquqiy asoslarning mohiyati erkinliklarni amalga oshirish bilan birlashadigan dinamik makonni ifodalaydi.

Demak, zamonaviy yoshlar ushbu jihatlarni avvalo oʻzlari tushunib shaxsiy ongida aks ettirib olmagunlaricha faol boʻla olmaydilar. Bilib-bilmay har qanday ijtimoiy tarmoqni rivojlantiraman, deb ish boshlasalar albatta, xatolarga duch kelishlari tabiiy. Shu jihatdan har bir yosh tanlayotgan sohasini tahlil qila olishi, mazkur sohaga mansub boʻlgan jarayonlarni puxta oʻrganishi kerak boʻlsa imkoniyatdan kelib chiqib, oʻz malakasini oshirishi zarur.

Ayniqsa, iqtisodiy soha shu jarayonni taqozo etadi. Iqtisodiy sohada qiymat, qoʻshimcha qiymat, mehnat unumdorligi, tannarx, ishchi kuchi, ichki va tashqi bozor, ishlab chiqarish hajmi va sifati, oluvchi va sotuvchi, isteʼmolchi, pul, mahsulot kabi oʻnlab jarayonlar mavjudki birinchi galda mazkur sohalarni oʻylab koʻrgan kishi iqtisodiy sohani oʻta murakkabligini his qila boshlaydi. Natijada faoliyatida ikkilamchi holatlar ham namoyon boʻla boshlayotganini tushuna boshlaydi. Shu sababli ham yosh inson ushbu sohalar bilan shugʻullanmoqchi boʻlsa, zinhor bilimga ega boʻlishi talab etiladi. Binobarin, ongi va tafakkurini mustahkamlashi, dunyoqarashini kuchaytirishi uchun harakatni yoʻlga qoʻyishi lozim. Faollikka erishish uchun

tinmay harakat qilish darkor. Jarayonlarni tahlil qilish uchun faqat har bir yoshning shaxsiy ongi, tafakkuri kifoya bo‘lib qolmaydi. Unga ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatni ko‘proq tushunishi uchun ijtimoiy ongni ham o‘rganish va undan foydalanishi ham talab etiladi. Binobarin, ijtimoiy ong yosh avlodni ijtimoiy-iqtisodiy madaniy boyliklar yaratishiga ko‘maklashadi.

Ijtimoiy ongning muhim unsurlaridan yana biri, bu yoshlarni tashabbus ko‘rsatib ijodiy yondashuvi uchun manba ham hisoblanadi. Ijtimoiy ong yordamida oldinroq paydo bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy boyliklarni yangi soha va turlari kelib chiqadi. Bu esa, yoshlarda faollikni yana oshiradi. Ya’ni, ijtimoiy fikrni paydo qiladi. Yangicha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni paydo bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Yoshlarni xatti-harakatlarini o‘zgartiradi.

Iqtisodiy sohada faoliyat ko‘rsatish uchun tajriba va yo‘nalishlarni tanlash va tanlangan tajribani amalga oshirish ham faollik harakatining bir qismidir. Chunki tajribada malaka oshadi. Yangi natija olish uchun kurashga chorlaydi. Demak, yoshlarning faoliyati iqtisodiy sohada murakkab kechadigan jarayondir. Fuqarolik jamiyati haqida gap ketganida ijtimoiy-iqtisodiy ongning mazkur ichki, kognitiv demokratizmga ta’siri, undan keyin ijtimoiy munosabatlarga bog‘liqligi nazarda tutilishi darkor. Agar fuqarolik jamiyati inson manfaatlarini o‘zining oliy qadriyatlari deb bilsa, undagi demokratik qadriyatlar individdagi, insondagi kognitiv demokratizmda aks etishi zarur. Fuqarolik jamiyatida ushbu ikki demokratizm dialektik uyg‘unlashadi[7].

Yoshlar o‘z faoliyati tufayli yangilik yaratishga intilar ekan, ular hozirgi jarayonni emas, balki kelajakni o‘ylab ham ish yuritishlari lozim. Barcha intilishlarda vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlarini ham unutmasligi lozim. Kelajak avlod uchun jon kuydirishlari ham farz, ham shartdir. Ma’lumki, faqat iqtisodiy soha ishlab chiqarishning turli tarmoqlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bularga og‘ir va engil sanoat tarmoqlari yangi mashinasozlik, elektr texnika, farmasevtika, maishiy tovarlar ishlab chiqarish, metallurgiya, zaruriy zavod va fabrikalar qurish; qishloq xo‘jaligi sohalari, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, paxtachilik, o‘rmonchilik va boshqa sohalar borki bu sohalarda yoshlarni faollik ko‘rsatish imkoniyatlari mo‘l ko‘ldir.

Aytish lozimki, yoshlar faqat o‘z manfaatlari qobig‘ida ish yuritsalar tarixdan o‘zlariga munosib o‘rin ololmaydilar. Yoshlar faolligi jarayonida jamiyat, davlat manfaatlariga mos tushishi ayniqsa zarur. Ijtimoiy-iqtisodiy faol bo‘laman degan har qanday yosh ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar orqali fuqarolik jamiyatining shakllanishiga hissa qo‘shayotganlik mas’uliyatini ham doimo sezib turishi lozim. Iqtisodiy tarmoqda ko‘rsatiladigan faollik o‘ta muhim xarakterga ega ekanligi bilan boshqa tarmoqlardagi faollikdan o‘zining etakchiligi bilan farq qilishi zarur. Ya’ni, bu sohadagi faollik boshqa sohalarda faollik ro‘y berishiga asos bo‘la oladi. Sir emas iqtisodiy jihatdan to‘q bo‘lmagan har qanday inson boshqa sohalardagi faolliklarga mehr bilan yondashmaydi, sababi avvalo o‘zini to‘qligini o‘ylash bilan band bo‘ladi. Boshqa sohalarni izlanishdan yiroq bo‘ladi. Yoshlar iqtisodiy jihatdan o‘z mehnatidan qoniqish hosil qilgandagina boshqa sohalarda ham jasorat ko‘rsatishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy jarayonlarda yoshlarni faollik ko‘rsatishi boshqa sohalarni rivojlantirishga ham asos bo‘la oladi. Binobarin, ushbu sohada ko‘rsatilgan faollik iqtisodiy borliqni yuqori bosqichga ko‘taradi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishga o‘zining ulkan ulushini qo‘shgan bo‘ladi. Chunki, faollik orqali muhim bo‘lgan iqtisodiy qonun va kategoriyalarni tahlil qilib o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi. Maqsad esa

shaxsiy faoliyatni yuksaklikka koʻtarish, jamoa uchun xizmat qilishdan iborat. Bularni amalga oshirish individual va ijtimoiy ongni mujassamlashtirgan holda, tafakkurni, dunyoqarashni kengaytirishga ham bogʻliq.

Ijtimoiy faoliyatni amalga oshiradigan yana bir soha bu ijtimoiy borliqdir. Ijtimoiy borliq aslida iqtisodiy borliqni davomi, hatto uning aralashmasidir desak xato boʻlmaydi. Ijtimoiy soha ham koʻp tarmoqlidir. Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy borliqni qaysi darajada ekanligi bilan ham bogʻliq. Jamiyatda mavjud boʻlgan ijtimoiy jarayonlar talab darajasida boʻlmasa, faollik koʻrsatish ham cheklangan boʻladi, yoki boshqacha aytganda qiziqish sust boʻladi. Ijtimoiy hayot ham yuqorida taʼkidlaganimizdek koʻp tarmoqlidir. Bu tarmoqlarga sogʻliqni saqlash, tarbiya va taʼlim aholini turmush tarzini yaxshilash uchun zarur boʻlgan: uy-joy masalalari, ichimlik va issiq suv bilan taʼminlash, gazlashtirish, aholini ish bilan band qilish, elektr-energiyasi, madaniy-maishiy xizmat koʻrsatish shaxobchalarini rivojlantirish jamoat tashkilotlari faoliyatlari uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kadirov M. Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv omillari: Fal. fan. boʻyicha fal. doktori (PhD) ... dis. – T., 2019. – 88 b.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2020. – 230 b.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2020. – 292-293 b.
4. Norqulov S. Mustaqillik davrida Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va ijtimoiy ongdagi oʻzgarishlar: Fal. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. – T., 2018. – 12 b.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6079-sonli farmoni / lex.uz/
6. Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2020. –184 b.
7. Norqulov S. Mustaqillik davrida Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va ijtimoiy ongdagi oʻzgarishlar: Fal. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. – T., 2018. – 13 b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).